

42. Nuqtadan 0 gacha bo'lgan masofa




Yondosh mavzu:
sayr.


Sonli nur, bo'linma,
koordinata.



1. Bolalar ustunlar yoniga turib olishdi. Ularning har biri Azizadan qanday masofada turibdi?




Nurdagi har bir nuqta uning boshidan ma'lum bir masofada yotadi. Bu masofani o'lchash uchun nurda shkala kiritiladi. Hisob boshidagi nuqtadan A nuqtagacha bo'lgan bo'linmalar soni A nuqtaning koordinatasi deyiladi.



A nuqtaning koordinatasi 5 ga teng. Uning yozilishi: $A(5)$.



2. Sonli nurdagi obyektlarning koordinatalarini toping. Bu qanday obyektlar? Bir bo'linma uchun necha metr qabul qilingan?



42. Nuqtadan 0 gacha bo'lgan masofa



Hayotda 0 bilan 1 orasidagi masofa bo'linma deyiladi, matematikada esa birlik kesma deb ataladi. Odatda, u e harfi bilan belgilanadi.



OA kesmaning uzunligini birlik kesma bilan o'lchash mumkin: $OA = 7e$.



3. Birlik kesmani $e = 2$ cm deb olib, koordinata nuri yasang. Unda $A(4)$, $B(8)$ nuqtalarini belgilang. OA , OB kesmalarning uzunliklarini birlik kesmalarda, santimetr va millimetrlarda toping.



4. Sayr vaqtida bolalar yo'lakchaga bo'r bilan sonli nur chizishdi. Nurning har 50 cm ga shtrixlar qo'yishdi. Aziza nurning boshiga kelib turdi. Umida Azizadan hisoblaganda yettinchi shtrixga, Sardor esa Azizadan ikki metr masofaga borib turdi. Umida Azizadan, Sardor esa Umidadan qanday masofada turibdi?



5. Kompleks masalalarni yeching.
- a) Agar $e = 5$ mm bo'lsa, koordinata nurida $O(0)$, $A(4)$, $B(12)$, $C(10)$ nuqtalarni belgilang.
 - b) OA , OB , OC kesmalarning uzunliklarini birlik kesmalarda, santimetr va millimetrlarda toping.
 - d) Qaysi (A , B yoki C) nuqta qolgan ikkita nuqta orasida yotadi? Qaysi nuqta boshqalaridan chapda, qaysi nuqta boshqalaridan o'ngda yotadi?
 - e) Nur boshidan 7 cm masofada D nuqtani belgilang. D nuqtaning o'rnini aniq ko'rsata olasizmi?
 - f) B nuqtadan $4e$ masofada E nuqtani belgilang. Bu nuqtani sonli nurda aniq qo'ya olasizmi?

42. Nuqtadan 0 gacha bo'lgan masofa



6. Hisoblang. Suv bo'ylari, chiroyli shahar ko'chalari hamda sayilgoh va bog'lar kabi manzarali joylarda shoshilmasdan sayr qilish bir so'z bilan qanday ataladi?

Hosil bo'lgan qiymatlarni kamayish tartibida joylashtirib, izlangan so'zni topasiz.

A $71 \cdot 71$

D $1875 + 1579$

N $2371 + 2995$

E $28647 - 22189$

M $8000 - 1058$

P $2023 \cdot 2 \cdot 3$

O $87120 : 2 : 5$

R $91251 : 9$



7. Madina dugonalari bilan birga hiyobon bo'ylab sayr qilishga 2 soat 39 minut sarflashdi. Bu vaqtning uchdan bir qismida ular piyoda yurishdi, 35 minut velosiped uchishdi, qolgan vaqtda esa samokatda sayr qilishdi. Ular qaysi transport turida ko'proq uchishgan?



8. Jasur sayilgohdagi zinadan tushayotib, zinaning bir pog'onasida to'xtadi. Shu joyda undan yuqorida ham, pastda ham zina pog'onolari soni bir xil ekanini payqadi. Keyin u 5 pog'ona yuqoriga ko'tarildi va 6 pog'ona pastga tushdi. Natijada, u pastdan hisoblaganda, zinaning 9-pog'onasida bo'lib qoldi. Bu zina nechta pog'onadan iborat?



9. Sayr vaqtida Aziza qadam hisoblagichni yoqib qo'ydi. Aziza sayilgoh yo'llarida 1 278 qadam, sayilgohtan uygacha sayilgoh bo'ylab yurganidan 372 qadam kam, uydan sayilgohtagacha esa boshqa yo'ldan qaytishga qaraganda 29 qadam ko'p yurgani ma'lum bo'ldi. Bu sayr davomida qadam hisoblagich hammasi bo'lib necha qadamni ko'rsatgan?



10. Birlik kesmani $e = 1$ cm deb olib, koordinata nuri yasang. Unda $A(5)$, $W(3)$, $Y(8)$ nuqtalarni belgilang. Bu harflardan qanday so'z hosil bo'ldi? Nur boshidan har bir nuqtagacha bo'lgan masofani millimetrlarda toping. WY kesmaning uzunligini aniqlang.